

**BIOMETRIK MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY
CHEGARALARI: MILLIY VA XALQARO TARJIBA**

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti
Nazirov Qobiljon Zohidjon o'g'li*

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda biometrik ma'lumotlardan foydalanishning huquqiy chegaralarini, huquqiy asoslarini hamda xalqaro va milliy qonunchilikning biometrik ma'lumotlardan foydalanishidagi tajribalarni o'rganadi. Tadqiqotda 2015-2025 yillar davomida qabul qilingan asosiy qonun hujjatlari tahlil qilinib, unda O'zbekiston Respublikasi, Yevropa Ittifoqi va boshqa shu kabi turli yuridik tizimlarning shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonunlaridan kelib chiqib, biometrik ma'lumotlarning to'planishi, saqlanishi va ishlatilishidagi huquqiy talablarga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekistondagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun" bilan Yevropa Ittifoqining "General Data Protection Regulation" (GDPR) qonunlari hamda boshqa davlatlarning qonunchiligi taqqoslanadi. Shuningdek, shaxsning roziligi, ma'lumotlarning xavfsizligi va biometrik tizimlarning amaldagi monitoringi va nazorati bo'yicha metodologik tahlil o'tkaziladi.

Maqolada biometrik tizimlar va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash borasidagi turli xil tahlillar keltirilgan, shuningdek, huquqiy normativ hujjatlar tahlil qilinib, ulardagi kamchiliklar ko'rsatiladi. Biometrik texnologiyalarni qo'llashda yuzaga keladigan huquqiy muammolar va xavf-xatarlar, shu jumladan, shaxsiy hayotga ta'sir qilish va noaniqliklarning oldini olish uchun xalqaro va milliy qonunchilikdagi yondashuvlar o'rganiladi hamda kerakli tavsiya va xulosalar beriladi.

Annotation. This research examines the legal boundaries and foundations of the use of biometric data in Uzbekistan, as well as the experiences of both international and national legislation in this area. The study analyzes key legislative documents adopted between 2015 and 2025, focusing on the legal requirements related to the collection, storage, and use of biometric data based on the laws of the Republic of Uzbekistan, the European Union, and other legal systems that address personal data protection. Special attention is given to a comparative analysis between Uzbekistan's "Law on Personal Data" and the European Union's General Data Protection Regulation (GDPR), along with relevant laws from other countries. The research also includes a methodological analysis regarding individual consent, data security, and the current practices of monitoring and oversight of biometric systems.

The article presents various analyses on biometric systems and the security of personal data, as well as an evaluation of legal normative documents, highlighting their shortcomings. It examines the legal issues and risks associated with the application of

biometric technologies, including potential impacts on personal privacy and the prevention of uncertainties. Approaches from both international and national legislation are studied, and necessary recommendations and conclusions are provided.

I. Kirish.

Hozirgi axborotlashgan davrda biometrik ma'lumotlar dunyoda keng miqyosda qo'llanilmoqda. Biometrik ma'lumotlar texnologiyalari insonning o'ziga xos xususiyatlarini – barmoq izlari, yuz, ko'z, ovoz va boshqa biometrik belgilarni aniqlash va autentifikatsiya qilishda foydalaniladi. Shuning uchun ko'p davlatlar bu texnologiyani yirik xavfsizlik tizimlarida, bank va moliya sohalarida, ta'limda, shuningdek, davlat xavfsizligi hamda huquqni muhofaza qilish organlarida muntazam qo'llamoqda. Shu sababli bugungi dunyoda biometrik ma'lumotlarga oid masalalar, xususan, ma'lumotlarning yig'ilishi, saqlanishi va ishlatilishining huquqiy jihatlarini o'zaro muvozanatli tartibga solish zaruratini tug'diradi.

Biometrik ma'lumotlardan foydalanish insonlar uchun ancha qulay va samarali hisoblandi. Shunga qaramay, biometrik ma'lumotlardan foydalanishda ularning shaxsiy ma'lumotlarini saqlashda va foydalanish bilan bog'liq xavf-hatarlar mavjud. Biometrik ma'lumotlarning o'ziga xosligi shundaki, u doimo bitta shaxs bilan bog'liq bo'ladi. Xususan, har bir shaxsning barmoq izi, yuz strukturasi, ovoz to'liqligi, ko'z qorachig'i takrorlanmas xususiyatga ega. Shuning uchun ham biometrik ma'lumotlar noyob, o'zgarmaslik xususiyatiga ega va bu ko'rsatkichlar butun umr davomida barqaror bo'ladi. Shu sababli bu ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi masalasi xalqaro miqyosda ham, milliy miqyosda ham juda muhim hisoblanadi.

Butun dunyoda biometrik texnologiyalarni qo'llashdagi eng katta muammo bu shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini va xavfsizligini ta'minlashda yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, dunyo bo'ylab ma'lumotlar o'g'irlanishi va noqonuniy foydalanish holatlari juda ko'p. Shuning uchun hozirgi vaqtda biometrik tizimlarni joriy etishda, bu texnologiyalarni to'g'ri qo'llashda huquqiy muammolar paydo bo'lmoqda. Bu muammolarni bartaraf qilishda turli yuridik tizimlar, shu jumladan O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi hamda shu kabi turli davlatlar, o'zlarining qonunlarini ishlab chiqmoqda. Bularning asosiy maqsadi biometrik texnologiyalardan foydalanishda aniq foydalanish taribini belgilash hamda aniq cheklovlar qo'yishdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasida aynan biometrik ma'lumotlardan foydalanishga doir aniq qonuni bo'lmasada, lekin „Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida“gi qonuni mavjud. U nafaqat shaxsiy ma'lumotlardan qanday foydalanish tartibini belgilaydi, balki biometrik ma'lumotlardan ham qanday foydalanish kerakligini belgilaydi. Bundan tashqari, dunyodagi eng samarali, rivojlangan hamda qat'iy qonunlardan biri bo'lmish Yevropa Ittifoqining "General Data Protection Regulation" (GDPR) qonunida biometrik ma'lumotlarni maxfiy ma'lumotlar sifatida tasniflaydi. Biometrik tizimlarni joriy

etishda, GDPRning 9moddasida ko'rsatilganidek, shaxsning roziligi aniq ifodalangan bo'lishi kerak. Yevropa Ittifoqi qonunchiligi bo'yicha biometrik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va ishlatish jarayonida xavfsizlik choralariga rioya qilish, ularni faqat belgilangan maqsadlar uchun ishlatish shartligi ko'rsatilgan.

II. Metodologiya.

Mazkur maqolada asosiy metod sifatida huquqiy tahlil, taqqoslash usuli va amaliy tadqiqotlar o'tkazish usullaridan foydalaniladi. Tadqiqot davomida biometrik ma'lumotlardan foydalanishning huquqiy chegaralarining milliy va xalqaro tajribalari o'rganiladi hamda mavjud muommolar topilib, ularga yechim beriladi. **Huquqiy tahlil usuli.** Mazkur metod orqali biometrik ma'lumotlardan foydalanishga oid xalqaro va milliy qonunchilik me'yorlari o'rganiladi. Xususan,

O'zbekiston Respublikasining „Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida“gi qonunini.

U shaxsiy ma'lumotlarning va biometrik ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlarning huquqiy asosini belgilaydi.

Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarning va biometrik ma'lumotlarning zarur hollarda olinish, ulardan foydalanishning tartiblarini belgilaydi. Bundan Tashqari, Yevropa Ittifoqining "General Data Protection Regulation" (GDPR) qonunini hamda AQShning „Health Insurance Portability and Accountability Act“ (HIPAA) qonunini o'rganadi. Qolaversa, yuqoridagi qonunlar tahlil qilinadi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil. Mazkur usul biometrik ma'lumotlar bilan bog'liq qonunchilikning xalqaro tizimlarida o'zaro farqlarni aniqlashga yordam beradi. Bu metod orqali O'zbekiston va Yevropa Ittifoqining qonunlari taqqoslanadi, shuningdek, AQSh va boshqa davlatlardagi normativlar bilan farqlar keltiriladi.

Qoleversa, ularning biometrik ma'lumotlardan foydalanishdagi huquqiy cheklovlari hamda amaldagi samaradorligi tahlil qilinadi.

Statistika va monitoring metodi. Mazkur usulda esa biometrik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlatish va ularga bo'lgan xavfsizlikni ta'minlash jarayonlarida amalga oshiriladigan nazorat faoliyatlari o'rganiladi. Biometrik ma'lumotlar – shaxslarning noyob jismoniy va xulqiy xususiyatlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar (masalan, barmoq izlari, yuz tanib olish) bo'lib, ular to'planganidan keyin nafaqat xavfsizlikka, balki shaxsiy huquqlarni himoya qilishga ham katta e'tibor qaratishni talab etadi. Shuning uchun biometrik tizimlar va ularga tegishli ma'lumotlarning xavfsizligi, shuningdek, ularning qonuniy ishlatilishi monitoring orqali ta'minlanadi. Bu tahlilning asosiy maqsadi biometrik ma'lumotlarning noqonuniy ishlatilishi, ma'lumotlarning buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi kabi xavflarni oldini olishdir. Biometrik tizimlarning nazorati uchun ko'plab qonunlarda maxsus talablar mavjud. Shuning uchun ushbu bo'limda, monitoring tahlilining amaliyotdagi ishlashini

o'rganib, davlatlardagi qonunlar va ularning monitoringni qanday amalga oshirishi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

III. Natijalar.

Axborotlashgan davrda biometrik ma'lumotlardan foydalanishda me'yoriy huquqiy hujjatlarni, qiyosiy va statistik tahlillarni amalga oshirish yuzasidan quyidagi natijalarga erishilgan.

O'zbekiston Respublikasi biometrik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va ishlatish bo'yicha alohida qonunchilikka ega emas. Lekin, 2019-yilda qabul qilingan

"Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatdagi asosiy huquqiy manba hisoblanadi. Ushbu qonunda shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash va ishlatishning barcha tartiblari ko'rsatilgan, jumladan, biometrik ma'lumotlar bilan ishlash ham kiritilgan. Ushbu qonunda shaxsiy ma'lumotlar va biometrik ma'lumotlar nima ekanligi tushuntirilgan. Shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli organ ham ko'rsatilgan. **"Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"**gi qonunning 8-moddasiga ko'ra „O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi qilib belgilangan"¹. Shuning uchun u ushbu qonunga muvofiq faoliyat olib boradi. Bundan tashqari, ushbu qonunda biometrik ma'lumotlardan qanday foydalanish ham belgilangan. Mazkur qonunning 26-moddasi uchinchi qismiga ko'ra „shaxsning biometrik va genetik ma'lumotlariga faqat o'sha shaxsning roziligi asosida ishlov berishga ruxsat berilgan"². Lekin, ba'zi holatlarda ya'ni O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ro'yobga chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish, ijro ishini yuritish bilan bog'liq hollar mustasno, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda ishlov berilishi mumkinligi belgilangan. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining **"Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"**gi qonunning 27-moddasida „shaxsga doir ma'lumotlarni har qanday noqonuniy olinishidan himoya qilishni kafolatlab qo'ygan. Xususan, subyektning o'z shaxsiy hayotiga aralashuvdan himoya qilinish huquqi amalga oshirilishini, shaxsga doir ma'lumotlarning yaxlitligini va but saqlanishini, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya etilishini, shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berishning oldini olish va boshqa har qoidabuzarliklarni oldini olish bo'yicha kafolatlar berilgan"³. Bunda ko'rinib turibdiki, O'zbekiston biometrik ma'lumotlardan foydalanishda aniq huquqiy chegaralarni belgilagan. Shuningdek, qoidabuzarliklar sodir etilganda javobgarlik ham belgilangan. Agar statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak **O'zbekiston Respublikasi Ma'lumotlarni Himoya qilish Markazi** tomonidan 2020-yil aprel oyida taqdim

¹²³

etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1,5 milliondan ortiq fuqaroning biometrik ma'lumotlari yig'ilgan. Bu ko'rsatkichlar davlatimizning zamonaviy identifikatsiya tizimlarini kengaytirishga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar yaqin yillar ichida yanada oshdi. Buning asosiy sababi turli davlat xizmalarini yoki boshqa tijoriy, notijoriy xizmatlarni ko'rsatishda biometrik ma'lumotlardan keng miqyosda foydalanilyotganligidir. Xususan, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (www.my.gov.uz), Soliq deklaratsiyasini elektron topshirishda (www.my.soliq.uz) va boshqa tijoratchi tashkilotlarning xizmatlaridan foydalanganda ham ularning platformalariga biometrik ma'lumotlardan foydalanish talab etadi. Bunda davlat xizmatlarida asosan OneID tizimi orqali kiriladi. Bu tizim o'zida insonlarni biometrik ma'lumotlarini saqlaydi va o'zlari xohlagan xizmatlardan oson hamda xavfsiz foydalanish imkonini beradi. Shuning uchun bunday ma'lumotlardan foydalanishning aniq chegaralarini hamda tartibini belgilashga doir tizimlarni takomillashtirish hamda boshqa qonunlarni ishlab chiqish juda muhim hisoblanadi.

Xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish natijasida quyidagilarga erishildi:

Shaxsiy ma'lumotlardan va biometrik ma'lumotlardan foydalanishning tartibini hamda ularning huquqiy jihatdan har qanday qonunbuzilishidan himoya qilinishini kafolat beruvchi Yevropa Ittifoqining "General Data Protection Regulation" (GDPR) qonunini hamda AQShning „Health Insurance Portability and Accountability Act“ (HIPAA) va „Biometrik Ma'lumotlar Maxfiyligi To'g'risidagi Qonun“ni (BIPA) qonunlari xalqaro miqyosda muhim huquqiy me'yorlar hisoblanadi. 2018-yilda kuchga kirgan Yevropa Ittifoqining "General Data Protection Regulation" (GDPR) qonuni shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda dunyodagi eng samarali qonunchiliklardan biri sanaladi. Unga ko'ra biometrik ma'lumotlardan foydalanishda va boshqa ma'lumotlardan foydalanishning shartlarini hamda huquqiy chegaralarini belgilaydi. Ushbu qonunning 5-moddasida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash tamoyillari berilgan. Unga ko'ra „shaxsiy ma'lumotlar qonuniy, adolatli va shaffof tarzda qayta ishlanishi, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlar dastlabki olingan maqsadlarga zid ravishda foydalanishi mumkin emasligini belgilangan. Qolversa, ushbu moddaga ko'ra noto'g'ri bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar, ularni qayta ishlash maqsadlarini hisobga olgan holda, kechiktirmasdan o'chirilishi yoki tuzatilishini ta'minlash uchun barcha oqilona choralar ko'rilishi kerakligi belgilangan”⁴. Biz buni xalqaro huquqda „**unutilish huquqi**“ deymiz.

Bundan ko'rinib turibdi mazkur tamoyillarning asosiy maqsadi shaxsning shaxsiy ma'lumotlarini har qanday qonun buzilishi orqali foydalanishni cheklash. Bundan tashqari, ushbu qonunning 7-moddasida shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishda faqat

shaxsning roziligi asosida foydalanishi kerakligi ko'ratilgan. Shuningdek, mazkur qonunning 9-moddasida „jismoniy shaxsni, sog'lig'iga oid ma'lumotlarni yoki jismoniy shaxsning jinsiy hayoti yoki jinsiy orientatsiyasiga oid ma'lumotlarni yagona aniqlash maqsadida genetik ma'lumotlarni, biometrik ma'lumotlarni qayta ishlash taqiqlanishi belgilangan”⁵ hamda ba'zi holatlarda ishlatilishi qonunning o'zida aniq ko'rsatib o'tilgan. Mazkur qonunning 51-moddasi biometrik va boshqa nozik shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish nazarda tutilgan. Unga ko'ra bu kabi ma'lumotlar faqat shaxsni roziligi mavjud bo'lsagina, undan foydalanishi kerakligini belgilangan. Qoleversa, yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanish uchun shaxs qaysi holatlar uchun foydalanmoqchiligini ham ko'rsatishi zarurligi aytib o'tilgan. Demak, GDPR qoidalariga ko'ra biometrik va boshqa shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishning shartlarini hamda qanday holatlar uchun bu ma'lumotlardan foydalanish mumkin emasligi qat'iy belgilanganligini ko'rsak bo'ladi. Bu qonundan ko'rinib turibdiki biometrik ma'lumotlardan foydalanishning huquqiy chegaralari aniq ko'rsatilgan hamda ushbu ma'lumotlar maxfiy saqlanishi, shaxsning rozilgisiz mazkur ma'lumotlardan foydalanish qat'iy taqiqlangan. Faqatgina, davlat va jamiyat manfaatlarini ko'zlab, shuningdek, sud jarayonlarda hamda boshqa qonuniy asosli holatlarda shaxsning biometrik va boshqa ma'lumotlaridan foydalanish mumkinligi belgilangan.

AQSHda biometrik ma'lumotlardan foydalanishga daxldor bo'lgan qonunlardan biri – bu „Health Insurance Portability and Accountability Act” (HIPAA) qonunidir. Ushbu qonunning asosiy maqsadi sog'liqni saqlash ma'lumotlarini himoya qilishga qaratilgan. Mazkur qonunga ko'ra „biometrik ma'lumotlarni sog'liqni saqlash xizmatlari tomonidan ishlatilayotgan hollarda, shaxsning ma'lumotlari uchun qat'iy xavfsizlik va maxfiylik talablarini qo'yadi”⁶. „Health Insurance Portability and Accountability Act” (HIPAA) qonuni shaxsiy ma'lumotlarning nojo'ya ishlatilishining oldini olish, ular faqat qonuniy asosda va shaxsning roziligi bilan ishlatishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Shuningdek, qaysi holatlarda shaxsning rozilgisiz ushbu ma'lumotlardan foydalanish mumkinligi ham ko'rsatib o'tilgan. Qoleversa, biometrik ma'lumotlar tibbiy maqsadlarda ishlatilishi kerakligi belgilangan.

AQSHning yana bir muhim qonunlaridan biri Illinoys shtatining qonun chiqaruvchi organi tomonida 2008-yilda „**Biometrik Ma'lumotlar Maxfiyligi To'g'risidagi Qonun**”i (BIPA) qabul qilingan. Bu qonun jismoniy shaxslarning biometrik ma'lumotlarini boshqarish huquqini ta'minlaydi. Ushbu qonun xususiy kompaniyalar uchun quyidagi bir qancha talablarni belgilaydi. Unga ko'ra „ular biometrik ma'lumotlar to'planishi va saqlanishi haqida yozma xabar berishi,

⁵

⁶

and-accountability-act-of-1996-hipaa.html?x-tr-si=enc&x-tr-tl=ru&x-tr-hl=ru&x-tr-pt=se

ma'lumotlarni qanday maqsadda va qancha vaqt davomida ishlatishni aniqlashi, fuqaroning yozma roziligini olishi kerakligi belgilangan"⁷. Shuningdek, ushbu qonun Illinoys shtatidagi kompaniyalar uchun biometrik ma'lumotlarni qanday boshqarish kerakligi bo'yicha standartlarni belgilaydi. Qolaversa, mazkur qonun kompaniyalar biometrik ma'lumotlarni sotish yoki tijorat maqsadlarida ishlatishni taqiqlaydi hamda iste'molchilarga kompaniyalarni sudga berish huquqini beradi. Bundan tashqari, **BIPA** Insonning biometrik ma'lumotlari faqat o'zlariga tegishligini ko'rsatib, ular korporatsiyalar tomonidan roziliksiz yig'ilishi va ishlatilishi mumkin emasligini belgilaydi, shuningdek, yuzni tanib olish texnologiyasining noto'g'ri ishlatilishini cheklaydi va xususiy kompaniyalar tomonidan biometrik ma'lumotlarni noqonuniy tarzda yig'ishdan himoya qiladi. Ushbu qonun insonlarga agar o'zlarining biometrik ma'lumotlari turli shaxslar yoki kompaniyalar tomonidan ularning rozilgisiz yig'ilgan yoki ishlatilgan hollarda insonlarning huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydi. Bunday holatlarda jismoniy shaxslar yuqoridagi qonun buzilishlarga duch kelsa sudga murojaat qilishi kerak bo'ladi. Shunda qoidabuzarlar sud tomonidan javobgarlikka tortiladi.

IV. Muhokama.

Bugungi axborot asrida biometrik ma'lumotlardan foydalanishning huquqiy chegaralarini cheklash juda muhim bo'lib bormoqda. Shuning uchun ham yuqorida misol qilib keltirgan davlatlarimiz bu talablarni qondirish maqsadida o'zlarining qonunchilik tizimini ishlab chiqqan. Lekin, ularning hammasi ham bu ma'lumotlardan foydalanishning samarali tizimini yaratishda ulkan natijalarga erishayotgani yo'q. Jumladan, O'zbekistonning biometrik ma'lumotlarni tartibga solish bo'yicha huquqiy tartiblari haligacha rivojlanish bosqichida. Mamlakatimizda biometrik ma'lumotlardan foydalanishni tartibga soluvchi alohida qonunchilik mavjud emas. Bu kabi ma'lumotlardan qanday hollarda foydalanish mumkinligi, qanday hollarda mumkin emasligi, biometrik ma'lumotlardan shaxsning roziligiz foydalanish mumkin emasligi kabi va boshqa talablarni o'zida aks ettirgan „**Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida**“gi qonun bor. Ushbu qonun mamlakatimizda biometrik ma'lumotlar bilan bog'liq huquqiy asoslarni ko'rsatsada lekin, ba'zi kamchiliklar va noaniqliklar kuzatiladi. Jumladan, biometrik ma'lumotlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari, shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq xavflar, ularning xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarning shaxsiy hayotini himoya qilish masalalari to'g'risida hali ham aniq muvofiqlashtirilgan yondashuvlar mavjud emas.

Shuning uchun ham mamlakatimiz biometrik ma'lumotlardan foydalanishga doir qonun hujjatini ishlab chiqishi kerak. Chunki bugungi texnologiya rivojlangan kunda biometrik ma'lumotlarni farqlash kerak. Gap shundaki, bugungi kunda axborot

⁷ <https://www.aclu-il.org/en/campaigns/biometric-information-privacy-act-bipa>

texnologiyalarini takomillashtirish, shuningdek, ularni kundalik hayotimizga kiritishda shaxsni aniqlash zarur. Bunday hollarda biz biometrik ma'lumotlardan foydalanishimizga to'g'ri keladi. Biometrik ma'lumotlar turli sohalarda, xususan, davlat xizmatlaridan foydalanishda, xavfsizlik, bank, moliya, jamoat transporti, sog'liqni saqlash va boshqalarda qo'llaniladi. Masalan, yuqorida ta'kidlaganimizdek davlat xizmatlaridan elektron foydalanganimizda OneID orqali kiramiz, shunda ham biometrik ma'lumotlardan foydalanishimiz kerak bo'ladi. „Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida“gi qonunda biometrik ma'lumotlarni to'plash uchun fuqarolarning roziligi kerakligi aytilgan, lekin uning qanday shaklda olinishi kerakligi haqida mexanizm yo'q. Shuning uchun qonunchiligimiz yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishda fuqarolarni xabardor qilish va ulardan rozilik olish jarayoni aniq qonunlar asosida ishlashga muhtoj. Bu kabi noaniqliklar hamda tartibga solishdagi kamchiliklar biometrik texnologiyalarning to'g'ri ishlashini ta'minlashda asosiy to'siqlarni yaratmoqda. Shuning uchun mamlakatimiz biometrik ma'lumotlar bilan ishlashda xalqaro tajribani o'rganishi kerak. Masalan, **Yevropa Ittifoqida GDPR** (General Data Protection Regulation) tizimi qat'iy huquqiy normalar joriy qilgan. Bu tizimda biometrik ma'lumotlar maxsus shaxsiy ma'lumotlar toifasiga kiritilgan va ularni qayta ishlash uchun aniq rozilik olish zarurligi belgilangan. Shuningdek, Yevropada fuqarolarga o'z biometrik ma'lumotlarini o'chirish huquqi, ya'ni **"unutish huquqi"** taqdim etilgan. Bu bo'yicha keyslar ham mavjud. Qolaversa, GDPR qoidalarini buzganlik uchun ushbu nizomning 83-moddasida javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston, shuningdek, **AQShdagi BIPA** (Biometric Information Privacy) tajribasini o'rganishi mumkin. BIPA, xususi kompaniyalar va davlat organlari uchun biometrik ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish va ishlatishni oldini olishga qaratilgan qat'iy huquqiy normalarni belgilaydi. Xususan, kompaniyalar biometrik ma'lumotlarni sotish yoki tijorat maqsadlarida ishlatishdan oldin fuqarolarning yozma roziligini olishlari shart. BIPA shuningdek, kompaniyalarni biometrik ma'lumotlarni noto'g'ri ishlatganliklari uchun jiddiy javobgarlikka tortadi. O'zbekiston uchun BIPAdagi tajriba muhim ahamiyatga ega, chunki bu qonun biometrik ma'lumotlarni yig'ish va ishlatishda kompaniyalarning qat'iy mas'uliyatini kuchaytiradi va fuqarolarga ma'lumotlarni himoya qilish imkonini beradi. Agar O'zbekiston ushbu tarjibani o'rganib, hayotga tatbiq qilsa biometrik ma'lumotlardan foydalanishda kelib chiqadigan muamolarni oldini olgan bo'ladi. Chunki mamlakatimizda dunyo davlatlarida bo'lgani kabi turli tijoratchi hamda notijoratchi tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi. Ular o'z xizmatlarini maxfiy va samarali joriy qilish maqsadida turli xil platformalar joriy qilgan. Ular bu platformalardan foydalanmoqchi bo'lgan shaxslarga biometrik ma'lumotlaridan foydalanish talabini qo'ymoqda, ya'ni asosan yuzdan foydalanishni. Bu esa o'z navbatida huquqiy muomlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, mamlakatimiz Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarning ham tarjibasini o'rgansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ularning kiberxavfsizlik talablari qat'iy, bu esa davlatimizga qo'l kelishi mumkin. Ushbu davlatlar biometrik ma'lumotlarni shifrlash va xavfsiz saqlash bo'yicha qat'iy talablarni belgilaydi. Maxsus hukumat organlari esa biometrik ma'lumotlar ustidan mustaqil monitoring olib boradi. Bunday tizimlar O'zbekistonda biometrik ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashda albatta, foydali bo'ladi.

Kiberxavfsizlik, bugungi kunda barcha davlatlar uchun dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, biometrik ma'lumotlar xavfsizligi masalasi juda muhim. Yurtimizda shaxsiy ma'lumotlarning sizib chiqishi holatlari, jumladan, biometrik ma'lumotlarning noto'g'ri saqlanishi va tarqalishi, holatlari afsuski mavjud. Bu muammolarni yechish uchun aniq va qat'iy qonunlar talab qilinadi. Biometrik ma'lumotlarni saqlash va ishlatishda xavfsizlikni ta'minlash uchun maxsus shifrlash texnologiyalarini joriy etish, ma'lumotlarni noto'g'ri ishlatishdan himoya qilish uchun aniq nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish hozirgi paytda mamlakatimiz uchun juda muhimdir.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat organlari va xususiy sektorda biometrik ma'lumotlar bilan ishlashda qat'iy nazorat va monitoring tizimlari kerak. Misol uchun, Yevropadagi **GDPR** tizimi, AQShdagi **BIPA**, va boshqa shu kabi davlatlarning yuqori darajadagi kiberxavfsizlik talablariga asosanib, O'zbekiston o'z tizimini takomillashtirishga erishishi mumkin. Bu nafaqat fuqarolarning ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga, balki xalqaro hamjamiyatda mamlakatning huquqiy obro'sini oshirishga ham yordam beradi.

Xulosa

O'zbekiston biometrik ma'lumotlardan foydalanishning huquqiy chegaralarini belgilashda ko'plab muammolarni bartaraf etishi kerak. Biometrik ma'lumotlarni to'plash, saqlash va ishlatish bo'yicha mavjud qonunchilikni kuchaytirish, xalqaro tajribalarni o'rganish va kiberxavfsizlikni ta'minlash orqali O'zbekiston o'z fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishda muhim qadamlar qo'yishi mumkin.

Xalqaro tajriba, jumladan Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubiy Koreya va boshqa shu kabi davlatlarning huquqiy tizimlari mamlakatimiz uchun foydali o'rnak bo'lishi mumkin. Biometrik ma'lumotlarni xavfsiz saqlash, fuqarolarning roziligini olish, va qat'iy nazorat mexanizmlari bilan ta'minlash orqali mamlakat biometrik texnologiyalarni xavfsiz va huquqiy jihatdan to'g'ri ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirgi axborotlashgan asrda bunday texnologiyalarni joriy qilish yurtimiz uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki mamlakatimizda biometrik ma'lumotlardan foydalanish yildan-yilga oshib bormoqda. Bunga misol qilib biz yuqorida statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdik. Shundan bilishimiz mumkinki biometrik ma'lumotlardan foydalanish

hajmi ancha katta. Buning asosiy sababi O'zbekiston fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda, shuningdek, xususiy sektorlar ham jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatishda biomterik ma'lumotlardan keng foydalanilayotganligidir. Bu albatta, eng yaxshi yondashuv bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun ham O'zbekiston biometrik ma'lumotlardan foydalanishda ishonchli va xavfsiz muhitni ta'minlash uchun himoya choralari va yangi muommolarga moslashishni davom ettirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining „Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy Qonunchilik bazasi (<https://www.Lex.uz>)
3. <https://gdpr-info.eu/art-5-gdpr/>
4. <https://www-cdc-gov.translate.goog/phlp/php/resources/healthinsuranceportability-and-accountability-act-of-1996hipaa.html? x tr sl=en& x tr tl=ru& x tr hl=ru& x tr pto=sc>
5. <https://www.aclu-il.org/en/campaigns/biometric-information-privacy-act-bipa>
6. <https://legalclinic.uz/tpost/y1sn536je1-ozbekiston-qonunchiligibiometrikmalumo>